

Oltin yetkazib berish zanjirining siyosati

TASDIQLASH

"Olmaliq KMK" AJ (OKMK) LKBU (London Qimmatbaxo metallar Bozori Uyushmasi) tomonidan akkreditasiya qilingan qimmatbaho metallarni qayta ishlovchisi sanalib, barcha amaliyotlarni eng yuqori odob-ahlok qoidalariga rioya qilgan holda, shuningdek tegishlicha extiyotkorlik bilan olib boradi. Oltin yetkazib berish zanjiri siyosatini amalga oshirishda, OKMK o'ziga quyidagi majburiyalarni oladi:

- o'zining ishdagi sheriklari bilan eng yuqori standartlar bo'yicha hamkorlik qilish;
- inson huquqlarining keng tarqalgan yoki tizimli buzilishlari bilan kurashish;
- har qanday nizolarda ishtirok etishlardan qochish;
- eng yuqori standartlarga rioya qilgan holda nopol pullarni legallashtirish bilan kurashish;
- terrorizmni moliyalashtirish (TM) bilan kurashish;
- nodavlat qurollangan guruhlarni va/yoki noqonuniy xarakat qiluvchi davlat yoki xususiy xavfsizlik xizmatlarining har qanday, bevosita yoki bilvosita harakatlarini qo'llab-quvvatlamaslik;
- poraxo'rlik va oltinning kelib chiqishi manbaalarini qasdan soxtalashtirishdan qochish;
- BMT sanksiyalari va ichki qonunchiligi bo'yicha barcha tegishli rezolyusiyalariga muvofiq bo'lism.

Biz barcha majburiyatlarimizga OKMK ilg'or boshqaruv tizimlari va ishlab chiqarish jarayonlarini qo'llash xisobiga hamda ularning doimiy takomillashtirilishi va texnik xizmat ko'rsatilishi bilan erishamiz. OKMK o'zining oltin yetkazib berish zanjirida ishtirok etadigan barcha xodimlaridan mazkur siyosatga mos kelishlarini va joylardagi boshqaruv organlari orqali ularga qat'iy rioya qilishlarini talab qiladi.

Har qanday xodimlarga compliance@agmk.uz funksional pochta qutisi orqali, shuningdek manfaatdor shaxslar yoki kontragentlarga oltin yetkazib berish zanjiriga tegishli va u bilan bog'liq bo'lgan har qanday xatarlar haqida turli xil masalalarni ifoda etish va/yoki axborot berish imkoniyati beriladi.

MAQSADLAR

Oltin qazib olish jarayoniga ko'ra, OKMK quyidagi majburiyatilarni o'z zimmasiga oladi:

1. Quyida keltirilgan har qanday xarakatlarga ko'maklashish yoki ular bajarilishini osonlashtirishdan topilgan mablag'lardan xech qanday zarar ham ko'rmaymiz va xech qanday foyda ham olmaymiz.

- a. Insonlarga nisbatan qyynoqlar, shavqatsizliklar, g'ayriinsoniy va qadr-qimmatni yerga uruvchi muomalalarning har qanday shaklidan;
 - b. zo'r lab ishlatish va majburiy mehnatning har qanday shakllaridan;
 - c. bolalar mehnatining har qanday noqonuniy shakllaridan;
 - d. inson huquqlarining boshqa jiddiy buzilishlari va suiste'mol qilinishlari, ulardan keng tarqalgani jinsiy zo'r lash kabilardan;
 - e. xarbiy jinoyatlar yoki xalqaro insonparvarlik huquqlarining boshqacha jiddiy buzilishlari, insoniylikka qarshi jinoyatlar yoki genosidlardan;
2. Biz ta'minotchilar yoki mijozlar bilan har qanday o'zaro hamkorlikni rad etamiz yoki zudlik bilan to'xtatamiz, agarda ular yuqorida qayd etilgan har qanday tartibbuzarliklarni sodir etuvchilari bo'lishsa yoki ular bilan biron tomonlama bog'liq ekanliklarini bilsak;
3. Biz nodavlat qurollangan guruuhlar yoki ularning afillangan shaxslari bilan xech qanday bevosita yoki bilvosita aloqalarga yol qo'ymaymiz. Ular quyidagilar:
 - a. kon ishlarini noqonuniy nazorat qiluvchilar yoki boshqacha yo'llar bilan oltin sotiladigan joylar va transport yo'naliishlarini hamda oltin yetkazish zanjiri bo'y lab harakatlanuvchi boshqa ishtirokchilar;
 - b. konlarga borish mumkin bo'lgan nuqtalarda, yoki oltin bilan savdo qilinadigan transport yo'llari yoki nuqtalarida noqonuniy soliqlar soluvchilar, po'pisa yo'li bilan pul yoki oltin undirib oluvchilar;
 - c. vositachilar, eksport kompaniyalari va xalqaro treyderlardan noqonuniy soliq yoki pupisa yuli bilan pul talab qiluvchilar.
4. Yuqorida qayd etilgan nodavlat qurollangan guruhlarga bevosita yoki bilvosita ko'maklashayotgan ta'minotchi yoki mijozlar bilan biz o'zaro hamkorlikni rad etamiz yoki bekor qilamiz, ular asosli xatar tug'dirayorganligini aniqlangan hollarda.
5. Biz konlardagi va/yoki ularga yondosh xududlardagi va/yoki transport yo'llari bo'y lab davlat yoki xususiy xavfsizlik xizmatlari qonunchilikni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan inson huquqlarini himoyalash, kon ishchilarining, uskunalar va ob'ektlarning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek kon uchastkalari yoki qazilmalarni qonuniy tashish yo'naliishlari va savdosini noqonuniy aralashuvlardan himoya qilish uchun yaratilganini tan olamiz. Agarda biz yetkazib berish zanjirining yuqorida ko'rsatib o'tilgan ishtirokchilari davlat yoki xususiy xavfsizlik kuchlarining noqonuniy harakatlarini bevosita yoki bilvosita qo'llab-quvvatlayotganliklari haqidagi xatarlar asosliligi aniqlangan taqdirda, biz ular bilan hamkorlik qilishni darxol to'xtatamiz.
6. Oltinning kelib chiqishini yashirish yoki soxtalashtirish uchun, biz xech kimga pora olishni taklif qilmaymiz va bermaymiz yoki talab qilmaymiz, shuningdek Hukumat tomonidan oltin qazib olish, savdo qilish, ishlov berish, tashish va eksport maqsadlari uchun to'lanadiganq, yig'mlar va litsenzion to'lovlarni to'lashdan bosh tortishga qarshi turamiz.
7. Biz noplarni legallashtirish bilan kurashish tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz va bunga o'z hissamizni qo'shamiz, biz kontragentlardan voz kechishga va'da beramiz, agarda ularning faoliyati noqonuniy soliqqa tortishdan olingan oltinni qazib olish, savdo

qilish, ishlov berish, tashish yoki eksport qilish bilan bog'liq bo'lsa, yoki konlarga kirish nuqtalari, transport yo'llari bo'ylab yoki yetkazib berish zanjiri bo'yicha boradigan ishtirokchilar oltin bilan savdo qiladigan joylarda oltinni po'pisa yo'li bilan olib qo'yishlari aniqlansa.

8. Biz oltin yetkazib berish zanjiriga taaluqli bo'lgan barcha hujjatlarni, jarayonning sifatini yaxshilash bo'yicha uzlusiz ish olib borilayotganligini isboti sifatida.tegishli tarzda saqlaymiz va yangilab boramiz.

9. Kompaniyaning yetkazib berishlar zanjiridagi ma'lum pozisiyasiga binoan, ta'minotchilar, davlat hokimiyatining markaziy yoki mahalliy organlari, xalkaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va tegishli uchinchi shaxslar bilan zarurat tug'lganda ishlab chiqarishni yaxshilash va monitoringini ollib borish uchun maqbul muddatlarda qabul qilingan bosqichma-bosqich xarakatlar yo'li bilan noxush ta'sirlarning xavfini oldini olish yoki kamaytirish maqsadida, o'zaro hamkorlik majburiyatini o'z zimmamizga olamiz. Biz yetkazib berish zanjiri bo'yicha navbatdagi yetkazib beruvchilar bilan har qanday hamkorlikni to'xtatamiz, agarda ular tomonidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan ishtirokchilar bilan hamkorlik muvaffaqiyatsizlikka uchrasa.

Biz tegishli ehtiyyotkorlikni boshqarish ishonchli tizimini amalga oshirish, markazlashtirish, singdirish, nazorat qilish, moslashtirish va takomillashtirish majburiyatini olamiz, mazkur tizim quyidagilarni belgilaydi:

1. Barcha tegishli xodimlar uchun aniq majburiyatlar va siljish yo'llarini.
2. Barcha yetkazib beruvchilarimiz uchun O'z-Mijozingni-Bil (O'MB) ishonchli tizimini.
3. Yetkazib berish zanjiri bilan bog'iq bo'lgan tavakkalchilikni baholash asoslarini ularni tasniflash uchun.
4. Yetkazib beruvchilar tavakkalchiligidagi baholashga asoslangan xatarlardan qochish qadamlarini.
5. Barcha tegishli xodimlarni majburiy o'kitishni.